


02 754.1  
Yu 91

OZOD YUSUPOV

# Rangtasvirda akvarel bilan ishlash texnikasi va texnologiyasi



22  
7544  
YU91  
AV


956.4  
256.4

O'ZBEKISTON BADIY AKADEMIYASI  
KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI MILLIY  
RASSOMLIK VA DIZAYN INSTITUTI

OZOD YUSUPOV

RANGTASVIRDA AKVAREL  
BILAN ISHLASH TEXNIKASI  
VA TEENOLOGIYASI

Metodik qo'llanma



TOSHKENT  
«CHASHMA PRINT»  
2011

*Mazkur metodik qo'llanma Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti Ilmiy Kengashi tomonidan (2010-yil 27-oktabrda) qarori asosida nashrga tavsiya etilgan.*

Ushbu metodik qo'llanma asosan akvarel bilan ishlash texnikasi va texnologiyasiga bag'ishlangan bo'lib, unda akvarelda naturmort ishslash bosqichlari, portret, alla-prima, tus va tusda ishslash, qismlarga ajratish, sayqallash, naturmort kompozitsiyasini yaratish haqida so'z boradi. Shuningdek qo'llanmada akvarel mo'yqalamlari, torshon qog'ozlar va bo'yoqlar haqidagi ma'lumotlar ham aks etgan.

Mas'ul muharrir – Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti professori  
**Rustam Xudoyberganov**

Taqribchilar: – O'zbekiston Badiiy Akademiyasi akademigi, professor  
**Sa'dulla Abdullayev**

Toshkent Davlat texnika universiteti Iqtisodiyot va menejment fakulteti Dizayn kafedrasи dotsenti  
**Haydarjon Sanayev**



## KIRISH

*Har qaysi inson Olloh taolo ato etgan noyob qobiliyat va iste'dodini avvalo o'zi uchun, oilasining, millati va xalqining, davlatining farovonligi, baxt-saodati, manfaati uchun to'liq baxshida etsa, bunday jamiyat shu qadar kuchli taraqqiyotga erishadiki, uning sur'at va samarasini tasavvur qilish ham oson emas.*

## ISLOM KARIMOV

Ushbu metodik qo'llanma tasviriy san'atning rangtasvir fani o'qitiladigan oliy o'quv yurtlari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar talabalari va o'qituvchilari hamda yosh havaskor rassomlar uchun mo'ljallangan bo'lib, u akvarelda ishlash texnika va texnologiyasini o'rghanish va o'rgatish uchun yordam beradi.

Barkamol avlodni tarbiyalash insoniyatning hamishalik orzusi bo'lib kelgan. Bugungi kunda milliy ma'naviyatimiz rivojini tasviriy san'at namunalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. O'zbek rassomlari keyingi yillarda samarali ijod qilib, yangi-yangi yutuqlarni qo'lga kiritayotgani, bu sohaga ko'plab yosh iste'dod egalarining kirib kelayotgani san'atimiz ravnaqi va porloq istiqbolidan dalolat beradi.

Har bir ijodkor o'z asarlarida o'lmas g'oyalarni bosh maqsad sifatida ifoda etsa, hech shubhasiz adabiyot ham, madaniyat va san'at ham ma'naviy yuksalishga xizmat qilib, o'z ijtimoiy vazifasini to'liq ado eta oladi. Ana shu boy tajribani har tomonlama chuqur o'rghanish, umumlashtirish va shu asosda yosh ijodkorlarni tarbiyalash bo'yicha zarur nazariy va o'quv-metodik bazani shakllantirish, bugungi kun talablariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlash bu muammolarni yechish imkonini berishi shubhasiz.

O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining ikkinchi bosqichida ta'kidlab o'tilganidek, talaba va o'quvchilar uchun darslik, o'quv va metodik qo'llanmalar yaratish asosiy maqsadlardan biri qilib qo'yildi.

Tasviriy san'at insoniyat tarixida juda katta ahamiyatga ega. Insoniyat yaralibdiki, uning hayotida tasviriy san'atning ilk

belgilari paydo bo‘lgan. Tasviriy san’at ijodkordan juda katta bilim va mahoratni talab qiladi. Hozirgi paytda tasviriy san’atning juda ko‘p yo‘nalishlari mavjud. Ushbu o‘quv-metodik qo‘llanma ham hozirgi zamon tasviriy san’atida akvarel rangtasviri texnikasi va texnologiyalari hamda ulardan to‘g‘ri foydalanish qonun-qoidalari to‘g‘risida tushunchalarni aks ettiradi.

Qo‘llanmada asosan akvarelda ishslash texnikasi va texnologiyasi haqida to‘xtalib o‘tilgan. Tasvirni qog‘oz yuzasiga joylash, yengil tuslar orqali rang berish, bosqichma-bosqich ishslash, sayqallash (lessirovka), qismlarga ajratish (detalizatsiya) kabi usullarning barchasi ushbu qo‘llanmada o‘z aksini topgan.

---

## AKVAREL RANGTASVIRI TARIXIDAN

Akvarel so‘zi italyancha bo‘lib (*aquarelle*), fransuzcha (*aquarelle*), inglizcha (*painting in water colours*) ya’ni suv bo‘yoqlar bilan ishlanadigan svul rangtasvir ma’nosini beradi. Akvarelda ishslash tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Bu haqda qadimgi Misr va Xitoy qo‘lyozma manbalarida alohida ta’kidlab o‘tilgan. San’atshunoslar tomonidan O‘rtalarda asrlarda Misr va Xitoy miniatyura maktabi o‘rganilgan va ularning ayrim namunalari hozirgi davrgacha yetib kelgan.

Gotika va Uyg‘onish davri bir qancha buyuk akvarel rassomlarini yetishtirib berdi. Bulardan aka-uka Limburg va Guberta van Eyklar, fransiyalik Jan Fuke, germaniyalik Dyurer shular jumlasidandir. O‘rtalarda Sharq miniatyura maktabining asoschisi, buyuk rassom Kamoliddin Behzod ham o‘z davrida akvarelda ko‘pgina miniatura asarlarini yaratgan. Uning asarlari bizning davrimizgacha yetib kelgan.

Eramizning II asrida qog‘oz ixtiro qilinganidan so‘ng Xitoyda akvarelda ishslash texnikasi rivojlana boshladidi. XII–XIII asrlarga borib akvarelda ishslash texnikasi Yevropaga ko‘chdi. O‘scha davrlarda akvareldan faqat rangtasvirning boshqa yo‘nalishlari

qatorida foydalanilgan. Tasviriy san'at tarixida rassomlardan Gertin, Terner va Kotmenlarning akvarelda ishlagan asarlari Angliyaning milliy san'ati faxri darajasiga ko'tarilgan.

Akvarel rangtasvirining ikkinchi gullab-yashnagan davri bu impressionizm davriga to'g'ri keladi. Ingliz akvarelchilarining an'analari rus akvarelchi rassomlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Ulardan biri, rus akvareli rangtasviri tarixida o'zining har xil janrdagi ishlari bilan nom qoldirgan, 1791–1848-yillarda yashab ijod etgan rus rassomi Pyotr Fyodorovich Sokolovdir. U akvarel rangtasvirida juda ko'plab asarlar yaratgan bo'lib, asosan portret, ov sahnasi va boshqa ko'plab janrlarda ijod qilgan.

Akvarel portreti janrida ijod qilgan rus rassomlaridan Karl Bryullov (1799–1852) va uning ukasi arxitektor Aleksandr Bryullovlar ko'plab ijod namunalarini yaratganlar. Rus akvarelchilaridan Vasilii Sadovnikov (1800–1879) va Lyudvig Permatssi (1818–1891) Rossiya imperatori saroyi devorlariga, imperatorning shahar rezedensiyasi devorlariga manzara va boshqa janrlarda rasmlar ishlagan. XIX asrning ikkinchi yarmida yashab ijod qilgan bir qancha rassomlar akvarel rangtasvirda ko'plab asarlar yaratdilar. I.Repin, M.Vrubel, V.Serov, I.Bilibin, L.Bakst, K.Somovlar shular jumlasidandir.

XX asr rassomlari ham rus akvareli maktabi an'analarini davom ettirdilar. Rus akvarelining tasviriy san'atdagi o'rni 1965 yil o'tkazilgan Butunitifoq akvarelchilari ko'rgazmasida namoyon bo'ldi. Rus akvarelchilari ustalari orasida rassomlardan Nikolay Tirs, Sergey Gerasimov, Georgiy Vereyskiy, Vladimir Kanashevich, Aleksandr Samoxvalov, Semen Pustovaytov, Vladimir Vstrogonskiy, Viktor Klimashinlar yaratgan asarlar rus akvarel rangtasviri tarixida o'chmas iz qoldirdilar.

O'zbek tasviriy san'atida ham akvarelchi rassomlar tomonidan ko'plab asarlar yaratilgan. Ayniqsa O'. Tansiqboev, E. Kalantarov, Usto-Mo'min, V.Eremyan, T.Muhamedov, E.Kigay, Q.Basharovlar yaratgan o'lmas asarlar san'atimiz xazinasini boyitdi. Hozirda akvarel rangtasvirida ijod qilayotgan rassomlardan M.Sodiqov, O. Ollaberganov, I. Vohidov, Aleksandr Li, Galina Li va boshqa ko'pgina rassomlar shular jumlasidandir.

Akvarelchi rassom M.Sodiqovning asarlarida hayotiylik va ona vatanga bo‘lgan tuyg‘ular aks etadi. Rassomning akvarel asarlarini tomosha qilgan paytda qadim Buxoroning saxovatpesha insonlari, eski pastqam uylar hamda tor ko‘chalarini ko‘z oldingizda namoyon bo‘ladi.

Rassom O.Ollaberganov esa moybo‘yoqli rangtasvirdan tashqari akvarelda ham samarali ijod qilib kelayotgan rassomlardan biridir. Uning akvarel rangtasviridagi ishlarida azim Xiva shahrining tor ko‘chalaridan tashqari osmono‘par minoralari, machit va madrasalari, vohaning zahmatkash insonlari qiyofasi o‘z aksini topgan.



## **AKVAREL BO‘YOQLARI HAQIDA MA’LUMOT**

Qadimda turli xil giyohlar va tabiiy moddalarni maydalab kukun holiga keltirib, ulardan bo‘yoq sifatida foydalanilgan. Hozirgi davrga kelib moybo‘yoq, akvarel, tempera, guash, akrill, anilin bo‘yoqlari mavjud bo‘lib, ular asosan zamonaviy texnika yordamida tarkibiga qarab, har xil kimyoviy moddalar aralashmasi yordamida tayyorlanadi.

Akvarel bo‘yog‘ining bir qancha turlari mavjud bo‘lib, ular haqida to‘xtalib o‘tamiz:

1. Qattiq va to‘rtburchak shakldagi akvarel bo‘yoqlar.
2. Fayans idishchalardagi yumshoq akvarel bo‘yoqlar.
3. Tempera va moybo‘yoq shaklidagi qo‘rg‘oshin idishlardagi akvarel bo‘yoqlar.

Akvarel bo‘yoqlarning asosiy qismini o‘simlik yelimi, gummi-arabik, dekstrin, tragant, olcha yelimi, asal, glitserin va boshqa moddalar tashkil etadi. Yana bir turdagiligi akvarel bo‘yoqlari ham mavjud bo‘lib, ular asosan arxitektura chizmalarida ishlatalindi. Bunday akvarellarning tarkibini duradgorlik yelimi va baliq yelimplari tashkil etadi. Qadimda qattiq turdagiligi akvarel bo‘yoqlari tayyorlangan

bo'lib, yuqorida aytib o'tganimizdek, ular chizmachilik ishlarida, turli xil arxitektura ko'rinishlari va planlarini chizishda ishlatalig'an.

Qattiq turdag'i akvarel bo'yoqlarni tayyorlashda tarkibiga asosan biriktiruvchi uch xil modda qo'shiladi. Bular gummi-arabik, dekstrin va qand qiyomi qorishmasidan iborat. Yumshoq turdag'i akvarel bo'yoqlarni tayyorlashda suvda tez erishini hisobga olgan holda uning tarkibiga ma'lum miqdorda gummi-arabik, dekstrin va asal qo'shiladi. Ayrim hollarda asal o'rniغا glitserin qo'shiladi. Bu esa akvarel bo'yog'inining tiniqligini va suvda tez erishini ta'minlaydi.

Asalli akvarel bo'yoqning nomidan ham ko'rinib turibdiki, bu turdag'i akvarel bo'yoqlarni tayyorlashda rangli kukunlar tarkibiga asosan biriktiruvchi modda sifatida asal qo'shiladi. Bo'yoqning oz miqdorini gummi-arabik tashkil qiladi. Gummi-arabik uning tez qurishini ta'minlaydi. Bo'yoq tarkibiga kopay balzami, eritilgan esfir moyi ham qo'shiladi. Shuning uchun ham asalli akvarel bo'yog'i tarkibida biriktiruvchi gummi-arabik bor bo'lgan tempera bo'yog'iga yaqin turadi.

Akvarel bo'yog'i rangining ustiga qo'yilgan yulduzcha ( \* ) belgisi uning qanchalik kuchli yoki kuchsizligini ko'rsatadi.

1. \* – kuchsiz;
2. \*\* – o'rtacha kuchli;
3. \*\*\* – o'ta kuchli.



*Akvarel bo'yqlarining ko'rinishi*

## AKVAREL RANGTASVIRIDA QOG'ozning ahamiyati

Qadimda qog'oz o'rniда pergamentdan, oshlangan teridan va yupqa qilib ishlangan fil suyagidan foydalanilgan. Bu xildagi ashylarda asosan miniatura asarlari tasvirlangan. Bizning davrimizda esa akvarel rangtasviri asosan qog'ozlarda ishlanadi. Hozirgi davrda ishlab chiqarilayotgan qog'ozlar ichida akvarel rangtasviri uchun maxsus tayyorlangan eng qulay qog'ozlardan biri *torshon* qog'ozidir. *Torshon* qog'ozining yuza qismi dag'al izlardan tashkil topgan bo'lib, bu qog'oz yuzasida akvarel bo'yoqlarini bir tekis qo'yilishini ta'minlaydi. *Torshon* qog'ozining yana bir xususiyati uning ikkinchi tomoni silliq bo'lib, chizmatasvir ishlashga juda mos keladi.

Qog'ozlar asosan yog'ochlarni qayta ishlash orqali olinadi, ayrim navdag'i qog'ozlarga o'simlik to'qimalaridan tashqari gips, kaolin, shpat, bo'r, qo'rg'oshin oqi hamda qog'ozning sariq tusini o'zgartirish uchun unga ko'k ranglar: ultramarin, berlin lazuri qo'shiladi. Akvarel rangtasviri doimo eng yaxshi va sifatli qog'ozlarga muhtojdir. Qog'ozning qanchalik sifatli yoki sifatsiz ekanligini unga ishlangan akvarel rangtasviri orqali bilish mumkin.

Hozirgi davrda ishlab chiqarilayotgan qog'oz navlari orasida eng ko'zga ko'ringani bu *vatman* qog'ozni hisoblanadi. Bu qog'ozning rangi oq bo'lib, uning yuza qismi har xil (silliq yoki dag'al) bo'ladi. Bundan tashqari, boshqa tusdagi qog'ozlarga ham akvarel bo'yoqlari bilan ishlash mumkin, masalan, sariq tusdagi qog'oz bunga misol bo'la oladi.

Akvarel rangtasvirida ishslash texnikasi shunday bir jarayonki, rangtasvir ishlanayotgan paytda qog'oz sirti doim namlab turiladi. Shunday namlanish vaqtida sifatli qog'oz ish jarayonida shishib, to'lqin bo'lib qolmaydi. Akvarel qog'ozlari orasida eng yaxshisi bu paxtadan tayyorlanganidir. U ishslash jarayonida namni o'ziga yaxshi tortib oladi va tez quriydi. Akvarel qog'ozining qalinligi 170 g/m<sup>2</sup> dan – 250 g/m<sup>2</sup> gacha bo'lishi lozim. Qog'ozning yuza qismi silliq bo'lmasligi kerak, chunki dag'al (g'adir-budur) bo'lgan

qog‘ozga ishslash oson kechadi. Akvarel uslubining o‘zi shunday bir jarayonki, bunda akvarel bo‘yoqlari qog‘oz yuzida tiniq va yengil ranglar orqali o‘z yorqinligini kashf etadi.




Akvarel qog‘ozlari

## AKVAREL MO‘YQALAMLARI

Akvarelda ishslash uchun turli xil o‘lcham va shakldagi tukli mo‘yqalamlar mavjud. Bular olmaxon, bo‘rsiq, tuklaridan tayyorlangan kolonokli hamda sun’iy tuklardan ishlangan mo‘yqalamlardir. Ular asosan dumaloq, yapaloq shakldagi mo‘yqalamlar hisoblanadi. Dumaloq shakldagi katta o‘lchamli mo‘yqalamlar (16–20) asosan akvarel rangtasvirni ishslash jarayonida qo‘llaniladi. Kichik o‘lchamli dumaloq shakldagi kolonok mo‘yqalamlardan (8–12) asosan rangtasvirdagi birinchi planda joylashgan detalarni (buyumlarni) qismlarga ajratish (detalizatsiya) va grafik qoralamalarni bajarish paytida foydalaniлади.

Rangtasvir ishslash jarayonida mo‘yqalamlarning navi va sifati juda katta ahamiyatga ega. Haqiqiy akvarel mo‘yqalami yumshoq, mayin bo‘libgina suvgaga botirib olganda ham konus shaklini yo‘qotmagan, o‘tkir uchli bo‘lishi lozim.



## **AKVARELDA ISHLASH JARAYONI**

Akvarel rangtasvirini ishlashdan oldin yosh ijodkor birinchi navbatda akvarel bo'yog'i va mo'yqalamdan tashqari, planshetga tortilgan torshon qog'ozni, suv to'ldirilgan idish, qog'oz yuzasini namlash uchun gubka bo'lishi talab etiladi. Akvarel qog'ozni (torshon) yuzasini akvarel bo'yoqlar bilan tez yopish uchun ijodkorda 10–16 o'lchamdagি mo'yqalamlar bo'lishi tavsiya etiladi. Sifatli akvarel qog'ozni rangtasvir ishlash jarayonida juda katta ahamiyatga ega.

---

## **AKVARELDA ISHLASH TEXNOLOGIYASI**

Akvarel rangtasvirida birinchi marotaba ishlayotgan yosh ijodkorlarga, avvalo, ishni ikkitadan beshtagacha buyumdan tashkil topgan naturmortdan boshlash tavsiya qilinadi. Chunki akvarelda ishlash qiyin uslublardan biri bo'lganligi uchun har bir qo'yilmadagi (postanovka) rangni puxta o'ylab, undan keyingina qog'oz yuzasiga qo'ygan ma'qul. Chunki moybo'yoq yordamida ishlanadigan rangtasvirda har bir o'yamasdan qo'yilgan ranglarni tozalab artish mumkin. Akvarelda esa bunday jarayonni takrorlab bo'lmaydi. Keraksiz ranglarni artish natijasida qog'oz yuzasi ko'p namlanadi va yaroqsiz holatga kelib, yirtilib qolishi mumkin.

Oson chiziladigan qo'yilmalarni puxta o'zlashtirmay turib, birmuncha qiyin bo'lgan qo'yilmalarga o'tishga shoshilmaslik kerak. Har qanday uzoq muddatli rangtasvirni ishlash oldidan yosh ijodkor qisqa muddatli etyudlarni bajarish maqsadga muvofiqdir. Bu orqali yosh ijodkorlardan qo'yilmani qog'ozga to'g'ri joylashtirishni, ranglar va tasvirning kompozitsiyali yechimini hamda qo'yilmadagi ranglarning bir-biriga mutanosibligini o'zlashtirib borish talab qilinadi.

Akvarelda ishslashning asosiy ashyolari: akvarel bo'yog'i, akvarel qog'ozni (torshon) va har xil o'lchamdagи akvarel mo'yqalamlari

hisoblanadi. Akvarel bo‘yog‘ining afzal tomoni shundaki, u tez muddatda quriydi va qog‘oz yuzasiga oson qo‘yiladi. Akvarel rangtasviri ustida endigina ish boshlayotgan yosh ijodkorlar, bunday ashyolardan to‘g‘ri foydalana olishmaydi. Akvarel rangtasviri tasviriy san’atning ma’lum janrlaridan biri bo‘lib, qog‘oz yuzasida yumshoq tukli kolonokli mo‘yqalamlar yordamida bajariladi. Akvarel ishslashda nafaqat akvarel bo‘yoqlardan, balki qog‘ozning oq rangidan ham foydaliniladi.

Akvarel bo‘yog‘ining yengil, yupqa qatlamlari orasidan ko‘rinib turgan qog‘ozning oq rangi, akvarel ranglarini yorqin qilib yoritib turganga o‘xshaydi. Bunday rangtasvir akvarelga qandaydir yengillik, jaranglilik va ko‘tarinki ruh bag‘ishlaydi. Shuning uchun ham akvarel rangtasvirida mukammal va aniq chizmatasvirning bo‘lishi talab qilinadi. Aks holda har qanday harakat paytida mo‘yqalamning qog‘oz yuziga bexosdan tegib ketishi oqibatida qog‘ozda harxil dog‘lar va chizgi izlarining qolishiga sabab bo‘ladi. Akvarel rangtasvirida chizmatasvirning ahamiyati tasviriy san’atning boshqa yo‘nalishlaridek juda katta ahamiyatga ega.

Endi akvarel rangtasvirining asosiy xususiyatlaridan biri – ish jarayonida nam qog‘ozga qo‘yilgan bo‘yoq tufayli kelib chiqqan xatolarning tuzatilishi haqida to‘xtalib o‘tamiz. Yosh ijodkorlar akvarel bo‘yoqlarining xususiyatlarini bilmagan holda ish jarayonida keragidan ortiqcha quyuqlikdagi ranglarni ishlata dilar. Buning natijasida rangtasvirda bo‘g‘iq, kir dog‘lar paydo bo‘ladi va rangtasvir o‘zining asosiy qoidalaridan biri bo‘lgan yorqinlik va tiniqlik darajasini yo‘qotadi. Shuning uchun ham yosh ijodkorlar ish jarayonida ranglar munosabatini o‘rganib olishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘yishlari kerak.

Masalan, oddiy naturmortdag‘i olma tasvirini olaylik. Bunda oq qog‘ozga chizilgan olmani akvarel bo‘yog‘idan foydalangan holda rangini suyuq qilib ishlaymiz. Natijada olmaga qo‘yilgan rang toza qog‘ozga nisbatan o‘zgarganini his qilamiz. Agar biz ikkinchi harakat bilan hali bo‘yalmagan qog‘ozga, ya‘ni naturmort foniga ranglar qo‘yanimizda bilamizki, bu jarayon orqali ranglar munosabatiga

erishamiz. Bunday paytda biz birinchi tajribamizdan kelib chiqib, akvarel rangtasviri jarayonini davom ettiramiz.

Shunday qilib biz qog'ozga akvarel bo'yoqlarini qanchalik ko'p qo'ysak, ranglar o'zining tiniqlik darajasini shunchalik tez yo'qotadi. Yorqin ranglarni boyitish va rangtasvirdagi ayrim tuslarni sayqallash (lessirovka) bir rangni boshqa rang bilan ishlash orqali uchinchi rangni tiniq qilib ko'rsatadi. Avvalo har qanday sayqallash ranglarning yorqinlik darajasini pasaytiradi. Shu sababli sayqallash bosqichini o'ta ehtiyyotkorlik bilan amalga oshirishni esdan chiqarmasligimiz lozim.

Akvarel rangtasvirida har qanday qog'oz va akvarel bo'yoqlarini ishlatib bo'lmaydi. Rangtasvirda ishlash uchun akvarel mo'yqalamlari orasida olmaxon tukidan tayyorlangan 16-o'lchamdan yuqori bo'lgan mo'yqalamlar eng yaxshisi hisoblanadi. Qismlarga ajratish (detalizatsiya) ishlarini kolonok rusumidagi mayda, nozik mo'yqalamlar orqali bajarish tavsiya etiladi.

Akvarelda rangtasvir ishslash jarayoni katta qog'oz yuzasini ranglar bilan yopishni taqozo etadi. Buning uchun bir butun torshonning to'rtadan ikki qismini, ya'ni yarmini ishlatgan ma'qul. Aks holda akvarelning xususiyatini va imkoniyatini his qilish qiyin bo'ladi. Akvarelda ishslashdan oldin chiziladigan chizmatasvir ham alohida e'tiborga olinadi. Agar akvarelda chizilgan chizmatasvir yomon ahvolda bo'lsa va u chizma o'chirg'ich yordamida tez-tez o'chirilsa, qog'oz yuziga akvarel bo'yoqlari yaxshi yopishmaydi. Natijada kir va dog'li tasvir vujudga keladi.

Akvarel rangtasvirining kompozitsiyasi va chizmatasviri juda aniq, to'g'ri bo'lishi shart. Qolgan barcha soya, yarim soya, tevarak-atrofdan buyumlarga tushayotgan yorug'lik (blik), buyumlarning biridan ikkinchisiga tushayotgan ranglar aksi (refleks) esa kichik mo'yqalamlar bilan akvarel bo'yoqlari yordamida ishlanadi.

Endigina tasviriy san'at bo'sag'asiga qadam qo'yayotgan ba'zi yosh ijodkorlar shunday savollar bilan murojaat qilishadi:

Birinchi navbatda ishni nimadan boshlagan ma'qul?. Buyumlar tasviridanmi yoki tasvirdagi fondanmi?.

Agar rangtasvirdagi kengliklar muammosi hal qilingan bo'lsa, unda ishni avvalo havo perspektivasini, tasvir planlarini hisobga olgan holda fondan boshlash kerak. Manzara rangtasvirida ishni eng uzoq, ya'ni uchinchi plandan boshlagan ma'qul. Bunda birinchi navbatda, osmon va ranglarning bir-biriga ufq chiziqlari orqali yengil o'tishi natijasida ikkinchi plandagi yerga, o't-o'lanylarga, daraxtlarga, undan keyin buyumlarning aniq va to'q tuslari orqali birinchi planga o'tiladi. Bu bilan birinchi plandagi buyumlargacha aniq ishlov beriladi.

Portret ishslash jarayonida esa avvalo, asosiy ish boshning tasviridan boshlanadi, undan keyin portret foni ishlanadi.

Naturmortda esa eng avval fondagi to'qranglardan, ya'ni uchinchi plandan boshlab, undan keyin naturmortdagicha buyumlarni tasvirlagan ma'qul. Bundan ko'rinish turibdiki, har qanday ishlanayotgan yangi rangtasvir asar yosh ijodkor oldiga kutilmaganda yangidan-yangi vazifalarni qo'yadi.

---

## AKVARELDA RANGTASVIRNI BOSQICHMA-BOSQICH AMALGA OSHIRISH

Uzoq muddatli akvarel rangtasviri ishlash jarayonida yosh ijodkorlar akvarel qog‘ozi (torshon) yuzasini bordaniga ranglar bilan bo‘yab tashlamasliklari kerak. Buning uchun birinchi navbatda, turli xil tabiat manzaralarini etyudlar orqali ishlab o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Birinchi etyud mashqlarini ishlash vaqtida ranglar aralashmasini boshqichma-bosqich amalga oshirgan ma’qul. Bunda etyud ishlash jarayonini och, yorqin, tiniq ranglar orqali boshlab, keyinchalik asta-sekinlik bilan to‘q ranglarga o‘tish yaxshi natija beradi.


Endi akvarel rangtasvirining bosqichma-bosqich amalga oshirilishi tartibini naturmort ishlash jarayonida ko‘rib chiqamiz. Avvalo naturmortni xona ichiga yorug‘ga yaqin qilib joylashtiramiz.

Qo‘yayotgan naturmortimiz yosh ijodkorlarga qiyinchilik tug‘dirmasligi uchun naturmort tarkibini devor fonida mato bilan birga qo‘yilgan buyumlar soni ikkitadan beshtagacha bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

### Birinchi bosqich

Bu bosqich qo‘yilgan naturmortni qog‘oz yuzasiga to‘g‘ri joylashtirishdan iborat bo‘ladi. Undan keyin qo‘yilmadagi (postanovka) buyumlarning hajmi jihatidan bir-biriga bo‘lgan katta-kichiklikdagi munosabatlarini aniqlab olamiz. So‘ngra e’tiborimizni birinchi va ikkinchi planlarda joylashgan buyumlar, havo perspektivasi hamda matolar taxamlariga qaratishimiz lozim bo‘ladi.

Undan keyin qog‘oz yuziga chizilgan naturmort fonidagi och va to‘q tusli ranglarni buyum rangi och-to‘qligiga qarab tuslab olamiz (*1-rasm*).



a)



b)



*1-rasm.*

*Naturmort ishslash jarayonining bиринчи босқичи*

*a) Naturmort chizmatasvirini qog'ozga joylash*

*b) Rangda tuslarga ajratish*

## Ikkinch bosqich

Bu bosqichda birinchi bosqichdagiga nisbatan to'q, tiniq va yorqin ranglar orqali ishlanadi. Tasvirni to'ldirib naturmortdag'i buyumlarga atrofdagi jismlardan tushayotgan refleks va boshqa ranglarni hisobga olib, issiq va sovuq ranglarga e'tibor qilgan holda ishimizni davom ettiramiz.

Ikkinch bosqichda asosiy ranglardan biri – naturmortdag'i buyumlarning birinchi va ikkinchi planlariga hamda havo va rang perspektivasiga e'tibor qilishimiz zarur. Bu orqali biz birinchi plandagi buyumlarning rangini ikkinchi va uchinchi plandagi buyumlarga nisbatan to'q, tiniq va yorqin qilib olishimiz lozim. Chunki naturmortdag'i buyumlarni ranglar orqali bir-biridan farqlashimiz va perspektiva qonun-qoidalariga rioya qilishimiz zarur (*2-rasm*).



*2-rasm.*

*Naturmort ishslash jarayonining ikkinchi bosqichi*

## **Uchinchi bosqich**

Biz siz bilan birinchi va ikkinchi bosqichdagi asosiy vazifalarni bajarib bo‘ldik. Qolgan oxirgi vazifa uchinchi bosqichda amalga oshiriladi. Bu bosqich orqali biz naturmortni yakuniga yetkazishimiz lozim bo‘ladi. Uchinchi bosqichda naturmortda joylashgan buyumlarni ranglar orqali qismlarga ajratib (detalizatsiya) chiqamiz. Ish jarayonida kir bo‘lib ketgan ba’zi ranglarni gubka yoki mo‘yqalam yordamida tozalab, qurigandan keyin tiniq ranglar bilan sayqallab (lessirovka) chiqamiz. Bu bilan naturmortdagi ranglarning umumiy (kolorit) uyg‘unligiga erishamiz.

Oxirgi bosqichdagi ishimizda asosiy e’tiborni ikkinchi va uchinchi plandagi buyumlarga qaratgan holda, bu plandagi buyumlarni sayqallash orqali birinchi plandagi buyumlarni yanada bo‘rttirib oldinga olib chiqamiz. Shu bilan naturmortni oxiriga yetkazib, tugatib qo‘yamiz (*3-rasm*).



*3-rasm.*

*Naturmort ishslash jarayonining uchinchi bosqichi*

## PORTRET

Portret so'zi (fransuzcha *portrait*, eski fransuzcha *portraite*) – qiyofadan qiyofaga ko'chirish degan ma'noni beradi. Portretning turlari juda ko'p bo'lib, ular asosan rangtasvirda, grafikada, haykaltaroshlikda va fotografiya sohalaridan tashqari so'z bilan tasvirlash orqali chiziladigan adabiy asarlarda ham uchraydi.

Tasviriy san'atda portret janri mustaqil janr bo'lib, tasvirlanayotgan inson qiyofasi xarakterini badiiy yechimlar orqali turli xil ranglar aralashmasidan foydalangan holda tasvirlashdan iboratdir. Portretda insonning tashqi qiyofasini chizish orqali uning ichki dunyosini tasvirlanadi, e'tibor nafaqat insonning yuz tuzilishi ko'rinishiga, balki uning ichki dunyosiga ham qaratilishi lozim (4-a, 4-b rasmlar).



4-a rasm.  
«Ayol portreti».



*4-b rasm.  
«Ayol portreti».*

Portret chizishda tasvirlanayotgan shaxsning tashqi tuzilishidagi o‘xshashlikni emas, balki uning ichki kechinmalari va ruhiyatini, takrorlanmas tipik qiyofasini, milliy ko‘rinishini tasvirlash muhimdir. Buning uchun, avvalo tasvirlanayotgan shaxsning o‘tirgan yoki tik turgandagi holati, uning bosh, ko‘z, quloq, og‘iz holatlari, burun qirralari, jag‘, yonoq holatlarini e’tiborga olish bilan birga, boshning bo‘yin orqali yelkaga bog‘lanish holati anatomik mushaklar, bosh chanog‘i, bo‘yin, yelka va ko‘krak qafasi suyaklariga e’tiborni qaratgan holda tasvirlash kerak bo‘ladi.

## AKVARELDA QISQA MUDDATLI ETYUDLARNI BAJARISH

Uzoq muddatli akvarel rangtasvirini ishlashdan oldin bir nechta qisqa muddatli etyudlarni bajarish yosh ijodkorlar uchun mahoratlarini oshirish asosi bo‘lib hisoblanadi. Bu orqali yosh ijodkor o‘z oldiga bir qancha vazifalarni maqsad qilib qo‘yadi. Birinchi navbatda, ular ranglar munosabati, ranglar uyg‘unligi, buyumlar hajmi va qismlarga ajratish (detalizatsiya) jarayonlari qonun-qoidalarini o‘rganib boradilar. Bunday holatlarda ayrim yaxlit narsalargina ishlanadi, masalan, qo‘Ining alohida ishlanishi, tabiatning bir qismi, bir nechta buyumlarning bir bo‘lagini ishlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Birinchi etyud mashqlarini ishlash vaqtida ranglar aralashmasini bosqichma-bosqich amalga oshirgan ma’qul. Bunda etyudlar och ranglar bilan boshlanib, asta-sekinlik bilan to‘q ranglar yordamida tugatiladi.

Akvarel bilan ishlash jarayonida tasvirlanayotgan buyumning hajmiga, yorug‘-soya tomonlariga va eng yorug‘ (blik) qismiga hamda ranglarning o‘zaro bog‘liqligiga e’tibor qaratilishi kerak bo‘ladi. Manzara tasvirini ishlayotgan paytimizda biz jonli tabiat bilan o‘zaro muloqotda bo‘lamiz. Bu orqali tabiatda ro‘y berayotgan hodisalarni, ranglarning tez-tez o‘zgarayotganini his qilamiz va kuzatamiz.

Endi esa har doimgidek rangtasvir ishlashni naturmortdan, u orqali esa naturmortdagи issiq-sovuq ranglar, buyumlardagi eng och va to‘q tuslar, eng yorug‘ joy (blik), soya, yarim soya, tushuvchi soya ranglarini o‘rganishda davom etamiz. Bunday naturmortni ishlash uchun bizga har doimgidek naturmortning kichik ko‘rinishidagi qisqa muddatli etyudlarini ishlashdan boshlaymiz. Avvalo naturmortda qo‘yilgan buyumlar soni ikkitadan beshtagacha bo‘lishi kerak. Naturmortni iloji boricha xonaning yorug‘ qismiga, ya’ni deraza yoniga yaqinroq joylashtirishimiz zarur.

Ana endi asosiy ishga, qisqa muddatli etyudlarni bajarishga o‘tamiz. Bunda eng asosiy vazifa buyumlarni qog‘oz yuziga

joylashtirishdan boshlanadi. So‘ngra naturmortdagi eng och va to‘q tuslarni aniqlab qog‘oz yuzasini namlagan holda etyudni davom ettiramiz.

Undan keyin qog‘oz yuzasiga ranglarni qo‘yayotganimizda, naturmortdagi buyumlar sirtidagi eng yorug‘ joy (blik)ni bo‘yamasdan qoldirib ketamiz. Chunki akvarel ranglari orasida oq ranglar bo‘lmaydi, shuning uchun ham akvarel rangtasvirida oq rang o‘rnini qog‘ozning rangi to‘ldiradi. Naturmortdagi buyum va matolar umumiylar tuslarining rangini qo‘yanimizdan keyin naturmortdagi issiq-sovuq ranglarni yordiq, tiniq bo‘yoqlar orqali qo‘yilmadagi (postanovka) yorug‘, soya, yarim soya va tushuvchi soyalarning rangini qo‘yishda davom etamiz. Ranglarimiz bir oz qurishi bilan birinchi va ikkinchi planlar ustida ishlashni boshlaymiz.

Bu paytda birinchi plandagi buyumlarni qismlarga ajratish (detalizatsiya) bilan birga, ikkinchi va uchinchi planlardagi buyumlarni sayqallash (lessirovka) orqali ularni birinchi plandagi buyumlardan uzoqlashtiramiz. Shu bilan qisqa muddatli etyudimizni yakunlaymiz (*5-rasm*).



*a) rasm  
akvarel, qog‘oz*



*b) rasm  
akvarel, qog‘oz*



v) rasm  
akvarel, qog'oz



g) rasm  
akvarel, qog'oz

5-rasm.

*Qisqa muddatli akvarel etyudlaridan namunalar.*

---

## TUS VA TUSDA ISHLASH

Tus rangtasvirning ajralmas bir qismidir. Boshlovchi yosh rassomlar o'zlarining birinchi rangtasvir asarlarini ishlash paytida tus to'g'risida o'ylashni esdan chiqarib qo'yadilar. Bu bilan ular rangtasvirda yorug'lik haqida unutib, tasvirlanayotgan ishning ranglar uyg'unligini buzib qo'yadilar. Yosh ijodkorlar rangtasvir ishlash paytida ranglarni oldindan ko'ra bilgan holda, tuslar tasviriga yetarli tarzda amal qilishlari kerak.

Oldindan bajarilgan tus tasviri mashqlari ko'pchilik boshlovchi yosh rassomlarga katta muvaffaqiyatlar olib kelishi mumkin. Buning uchun boshlang'ich guruhlarda rangtasvir fanini o'rgatishda rangtasvir mashqlarini bir xil rangdagi bo'yoqlar orqali, ya'ni grizayl uslubidan boshlagan ma'qul.

## **YORUG‘-SOYA VA ISSIQ-SOVUQ RANGLAR HAQIDA TUSHUNCHA**

Ranglar uyg‘unligi tog‘risida so‘z yuritar ekanmiz, avvalo rangtasvirdagi issiq-sovuq, yorug‘-soyalardagi ranglar tushunchasi haqida to‘xtalib o‘tishimiz lozim. Eng avvalo, rangtasvirdagi yorug‘ va soyaning, issiq va sovuq ranglarni ko‘ra bilishimiz hamda ularni his qilishimiz zarur. Bu qonuniyatning asosi shundaki, rangtasvirdagi yorug‘ joylar sovuq ranglar orqali tasvirlansa, undagi soyalar issiq ranglar bilan ishlanishi yoki issiq ranglar bilan tasvirlanayotgan yorug‘liklardagi soyalar sovuq ranglar bilan tasvirlanishi lozim bo‘ladi.

Masalan, tabiat manzarasini ishslash jarayonida tabiatdagi narsalarga tushayotgan yorug‘lik issiq rangda, tushayotgan soyalar sovuq rangda bo‘ladi. Kechki payt oy nurining tovlanishi natijasida yorug‘likning o‘ta past aks etishi, ishlayotgan rangtasvirimizda namoyon bo‘ladi. Agar biz osmondan tushayotgan yorug‘lik aksini sezsak, bunday hollarda yorug‘lik tushayotgan narsa sovuq, uning soyasi esa issiq ranglarda bo‘ladi.

Biz rangtasvir ishslash jarayonida yorug‘likning qay tarzda tushishini kuzatsak va puxta o‘ylagan holda ish boshlasak, ishlayotgan rangtasvirimiz ranglarga boy va ranglarning uyg‘unligi bilan o‘zining mukammal asar ekanligini namoyish etadi.

Yorug‘-soya, issiq-sovuqranglaryordamidabiznafaqattasvirdagi buyumlarning hajmini yoki narsalarning shaklini tasvirlaymiz, balki rangtasvirdagi eng qiyin jarayonlardan biri bo‘lgan, buyumlarning bir-biriga tushayotgan aksi (refleks)ni ham tasvirlaymiz. Bu bilan rangtasvirning asosiy jarayonlardidan biri bo‘lgan yorug‘-soya va issiq-sovuq ranglarning umumiy tushunchasiga ega bo‘lamiz.

## **RANGTASVIRDA RANGLAR QARAMA- QARSHILIGINI HIS QILISH**

Muntazam ravishda ko‘z orqali ko‘rib, qo‘l bilan bajarilgan mashqlar, oxir-oqibatda ranglar qarama-qarshiligi, ranglarni farqlash, ularni ko‘ra olish, rang ashyolarini mohirona ishlata bilish darajasiga olib keladi.

Rangtasvir ustalarining asarlarini kuzatar ekanmiz, bunday asarlarning yengil va mohirona tasvirlanganini ko‘ramiz. Natijada ulardan olam-olam zavq olamiz, hamda ulardan o‘rganishga harakat qilamiz.

Bunday katta amaliyot mashqlarini bajarish natijasida qo‘yilmalardagi ranglarni va undagi ranglar uyg‘unligi darajasini yengil va mohirona tasvirlashni o‘rganamiz. Har qanday natura qo‘yilmasini asosiy va yagona yaxlit obrazlar qatorida ko‘rib chiqishimiz kerak bo‘ladi.

Ma’lum bir muddatda naturmortning alohida buyumlardan tashkil topishini, masalan: ko‘za, olma, kosa; manzarada esa – birinchi plandagi narsalar: osmon, o‘rmon, o‘t-o‘lanlar, toshlar, eng oxirgi plandagi moviy tog‘lardan hosil bo‘lishini esdan chiqarmasligimiz lozim. Bunday qarash orqali naturadagi tasvirlashimiz lozim bo‘lgan ranglarni emas, balki buyumlarning bo‘yog‘ini ko‘ramiz xolos.

Bu esa akvarelda ishslash vaqtida natura obyektidagi ranglar uyg‘unligini va jarangdorligini butunligicha qabul qilinishini huddi bir butun simfonik asarning musiqa asboblari yordamida ijro etilayotganiga o‘xhatish mumkin.

---

## **NATURMORT KOMPOZITSIYASINI YARATISH**

Naturmort kompozitsiyasini yaratishda shunday ko‘rinish nuqtasini topish lozimki, bu nuqta orqali uning haqqoniyigligi aks etib turishi kerak. Shu maqsadda naturmort chizuvchi rassom kuzatuv

joylarini o'zgartirmagan holda bir nechta qoralamalar bajarishi lozim bo'ladi. Naturmort chizishda ijodkorning mahoratli va bilimli ekanligi bu jarayonda muvaffaqiyat qozonishga yordam beradi. Eng qiziqarli ko'rish nuqtasi tanlangandan keyin naturmort ishlanadigan mato (xolst) va qog'ozning qanday o'lchamda bo'lishi aniqlab olinadi.

Boshlovchi rassomlarning ishdagi asosiy yutuqlaridan biri mato yoki qog'ozga chizilgan kompozitsiya tasvirining aniq chizgilar orqali pishib etilganligi va tasvirdagi plastik yechim hamda izlanishlarining yaqqol ko'rinish turishidadir. Buning barchasiga yosh boshlovchi rassomda kompozitsiya asoslarini mukammal egallaganligi sababli erishish mumkin.



## O'QUV QO'YILMALARIDA FONNING AHAMIYATI

O'quv qo'yilmalarida (postanovka) fon eng asosiy o'rnlardan birini egallaydi. Turli xil ranglar va yorug'liklar, qarama-qarshi ranglarning bir vaqtdagi ta'siri orqali buyumlardagi ranglarning qabul qilinishiga kerakli ta'sirini ko'rsatadi. Yorug' fonda buyumlarning soya va yarim soya tomonlari yaqqol ko'rinish turadi. To'q fonda esa aksincha bo'lib buyumlarning yorug'lilik sifati aks etib turadi. Tusda fon o'rtacha buyumlardagi och va to'q ranglar oralig'ida silliq va yengil (uncha to'q bo'lmas) holda, rangda qo'yilma kengliklarida sezilmaydigan darajada bo'lishi kerak.

Masalan, buyumdagagi ranglar yorqin qizil rangda bo'lsa, u holda fon rangini daxlsiz qizil rangda, agar buyumlar to'yingan yashil yoki och yashil rangda bo'lsa, fon kam to'yingan to'q yashil rangda bo'lishi kerak. Rangtasvirda fon o'rnida xona devori, xona ichkarisi (interer) kengliklari, biron-bir taxtadan ishlangan eski devor va tabiat kengliklaridan foydalanishimiz mumkin. Har qanday holatda ham fon qo'yilmani hayotiy va haqqoniyligini ko'rsatishi lozim. O'quv qo'yilmasidagi naturmortlar kompozitsiya jihatidan har xil bo'lishi mumkin. Bunda faqat asosiy maqsad o'zgarmasdan qoladi.

Ijodiy naturmort qo'yilmasini tuzish jarayonida ham ranglarning hayotiy va tabiiyligiga fikrimizni qaratishimiz lozim. Bunday hollarda buyumlarning chirolyi va qiziqarli kompozitsiyali guruhini tuzishda hayotiy tajribalardan kelib chiqishimiz mumkin. Rangtasvirning asosiy vazifalaridan biri shundaki, bunda buyumlarning kengliklaridagi ranglar oraliqlari va ularning hajmлari hamda materiallilik sifatlari rassom fikrlarining in'ikosi sifatida obrazli holda ochib berilishi kerak.

---

## ALLA-PRIMA USLUBI

Alla-prima (*alya-prima*) italyancha so'z bo'lib (*allaprima*), ya'ni bir vaqtida, bir harakatda, bir marotabada degan ma'nolarni beradi. Alla-prima uslubi bir qarashda oson bo'lib ko'ringani bilan har qanday rassomdan juda katta mahoratni talab qiladi. Bu uslub asosan nam qog'ozga yorqin, tiniq ranglar orqali tasvir ishlashdan iborat bo'ladi. Shuning uchun bunday uslub «nam rangtasvir» deb ham ataladi. Akvarel rangtasvirida bunday uslublar akvarelchi rassomlar tomonidan tez-tez qo'llanilib turiladi. Bu uslub asosan qisqa muddatli akvarel etyudlari ishlash jarayonida amalga oshiriladi. Mohir akvarelchidan rangli tuslarni qog'ozga qo'yishdan oldin yaxshilab o'ylab olish talab etiladi.

Akvarelchi rassom ko'z oldiga keltirgan rang-tuslarni ish jarayonida akvarel qog'ozi (torshon)ning yuqori qismidan boshlab qo'ygani maqsadga muvofiqdir. Uncha katta bo'limgan, qiya holda ushlangan planshet (qog'oz) yuziga qo'yilgan yorqin, tiniq ranglar qog'oz yuzasida pastga tomon bir maromda harakatlanib, ranglarning bir-biriga qo'shilib aralashishi natijasida rangtasvirda ranglar uyg'unligini hosil qiladi.

Ranglarning bir maromda qo'yilishini ta'minlash maqsadida ishni boshlashdan oldin qog'oz yuzasini kerakli miqdorda namlab olish kerak. Och ranglar qorishmasi bir muncha to'q ranglar aralashmasi bilan birgalikda qog'oz yuzasida atrofi to'q rangli

chiziqlardan iborat bo‘lgan och tusdagi dog‘larni paydo qiladi. Rangtasvirdagi soya joylar faol va yorqin ranglar bilan ishlanadi. Bu esa qo‘yilgan yorqin, tiniq ranglar tagidan qog‘ozning ko‘rinib turishi natijasida yumshoq, tiniq ranglar shodasini tashkil etadi.

---

## QISMLARGA AJRATISH (DETALIZATSIYA)

Qismlarga ajratish rangtasvirda eng murakkab jarayonlardan biridir. Bu esa obrazli ko‘rish orqali qo‘yilgan qo‘yilmadagi (postanovka) buyumlarning aniq shakli va xarakterini qo‘yilgan ranglar orqali olib berishni talab qiladi. Rangtasvirdagi qismlarga ajratish mohir rassomning chuqur bilimini kasbiy mahoratini yaqqol ko‘rsatadi. Qismlarga ajratish ranglar orqali mazoklarda shtrix, retush, pero va mo‘yqalamlar bilan amalga oshiriladi.

Akvarel rangtasvirida qismlarga ajratish asosan buyumning eng nozik joylarini kolonok mo‘yqalamlari yordamida bajariladi. Qismlarga ajratishda mazok va shtrixning yo‘nalishi juda katta ahamiyatga ega. Mazok va shtrixning to‘g‘ri yo‘naltirilishi orqali rangtasvirdagi buyumlarning rangini yaqqol tasvirlashda ko‘pgina muvaffaqiyatlarga erishish mumkin.

O‘zbek akvarelchi rassomlarining ishlari haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, ularning akvarel rangtasvirida ishlangan asrlarida shtrix va qismlarga ajratish texnikasining naqadar ahamiyatli ekanligiga amin bo‘lamiz. Bunday akvarel rangtasviri asarlarda akvarel mo‘yqalami orqali qo‘yilgan eng to‘q chiziqli shtrixlarni yumshoq, yarim tusli mazoklar orqali aniq va yaqqol tasvirlanganini his qilishimiz mumkin.

Shtrix berish nafaqat ishlatilayotgan mo‘yqalamga, balki buyumning tuzilishiga hamda mo‘yqalam orqali shtrix va mazok berilayotgan vaqtida qo‘lning harakatiga ham bog‘liqidir. Qismlarga ajratish texnikasida ishlatiladigan asosiy asboblardan biri pero ekanligini unutmasligimiz kerak. Rangtasvirda asosan akvarel siyohlari yordamida pero bilan ishlanadi. Pero rangtasvirda eng

mayda qismlarga ajratish imkonini beradi. Bunday qismlarga ajratish uslubi ayniqsa, miniyaturla, portret va akvarel rangtasvirida inson qomatining kichik o'lchamlarini, uning yuz qiyofasini mo'yqalam orqali tasvirlash qiyin bo'lgan hollarda qo'llaniladi.

Shunday qilib, qismlarga ajratish uslubi har bir ishlanayotgan asarning yakunlovchi bosqichi hisoblanadi. Qismlarga ajratish uslubi kompozitsiyaning markazi hisoblanib, asar tomoshabinning diqqat markazida turadi. O'ylab va aniq ishlangan qismlarga ajratish orqali tasvirlanayotgan obraz qiyofaning xarakterini boyitibgina qolmay, balki asarga chuqur ma'no va ko'tarinki ruh baxsh etadi.

• • •

## SAYQALLASH (LESSIROVKA)

Akvarel bo'yoqlari orqali ishlanayotgan uzoq muddatli rangtasvirda bitta rang ustidan ikkinchi rangni qo'yilishi natijasida tasvirlanayotgan narsalarning shaklini va hajmini aniq ishlashda, uchinchi rangni suyuq qilib, och tusda sayqallah uslubidan foydalanishga to'g'ri keladi. Bu jarayonni tasviriy san'atda sayqallah (lessirovka) deb ataladi. Bu uslub rangtasvirda asosiy jarayonlardan biri hisoblanadi.

Sayqallah uslubi rangtasvir ishslash vaqtida tez-tez qo'llaniladi. Rangtasvirda bunday uslub ayniqsa soya joylarini, xona ichkarisi tasviridagi ba'zi bir narsalarni birinchi plandan ikkinchi va uchinchi planlarga uzoqlashtirish maqsadida ishlatiladi.

Sayqallah uslubi ikkinchi va uchinchi plandagi ranglarni uzoqlashtirish bilan birga birinchi plandagi ranglarni yorqin, tiniq va jarangdor bo'lishini ta'minlaydi. Bu uslub orqali ishslashda ayrim qoidalarga amal qilish maqsadga muvofiqdir. Bu borada avvalo rangtasvirdagi ranglarni qo'yishni issiq ranglardan boshlash kerak. Undan keyin och tusdagi sovuq ranglarni qo'yish kerak bo'ladi. Issiq tusdagi ranglar rangtasvir ishslash davomida yaxshi his qilinadi va bu tugallanayotgan asarga ranglar uyg'unligini baxsh etadi. Och tusdagi sovuq ranglarni rangtasvir so'ngida rang-barang bo'yoqlar qatlami ustidan suyuq holda qo'ygan ma'qul.

Birinchi sayqallash jarayonini mumkin qadar tiniq ranglardan boshlash kerak. Tiniq ranglar bilan sayqallangan ranglar qatlami sayqallash jarayonidan keyin ham aniq ko'rinish turadi. Ketma-ketlikda qo'yilgan ranglar qatlami qo'yirma (postanovka)dagi buyumlarning tusi va ranglarining o'zaro bog'liqligi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Akvarel rangtasvirida bitta joyga uch va undan ko'p qatlamlarda ranglarni qo'yib bo'lmaydi. Bu rangtasvirdagi ranglarning kirlanishiga olib keladi. Qog'ozning takror va takror namlanishi uning sifatini buzilishiga sabab bo'ladi. Sirtining ishqalanishi orqali qog'oz yaroqsiz ahvolga keladi va yirtiladi. Oqibatda asardagi ranglar tiniqligi yo'qolib, ularning och tusga kelib qolishiga sabab bo'ladi. Bu esa sayqallash jarayonida qo'yilgan xatolardan biri hisoblanadi.

---

## AKVAREL RANGTASVIRIDAN TOPSHIRIQLAR

1. O'quvchiga tasvirlanayotgan buyumlarning tekislik va kengliklariga tushayotgan yorug'liklar va ularning rang-barangligi xususiyatlarini bir-biriga aloqadorligini hisobga olishni tushuntirish;
2. Yosh rassomlarni rangtasvir nazariyasi asoslari, rangshunoslik, perspektiva, soyalar nazariyasi hamda rangtasvirning texnika va texnologiyasi bilan tanishtirib borish;
3. Kelajakdagi mustaqil ishlar asosini yaratish uchun yosh rassomlarga amaliy mashg'ulotlar asosida zaruriy bilimlar berish lozim.
4. Akvarel rangtasvirini ishslash oldidan tayyorgarlik ishlari.

## **Akvarel rangtasviri ishlashga oid asosiy tushunchalar:**


1. Eng yorug‘ (blik) va qarama-qarshi ranglar (boshlang‘ich mashqlarda).
2. Nur va soya:
  - rangtasvirdagi nur va soya vazifalari;
  - tabiiy soyalar;
  - har xil plandagi soyalarning buymlarga ta’siri.
4. Akvarelda ishlashga to‘g‘ri yo‘naltirish;
  - asosiy va qo‘srimcha ranglar;
  - issiq-sovuq ranglar haqida tushuncha;
  - tusning ahamiyati;
  - planlar ustida ishslash.
6. Qismlarga ajratish (detalizatsiya);
7. Sayqallah (lessirovka);
8. Ishni yakuniga yetkazish.

## **Mashg‘ulot paytida**

O‘qituvchi o‘quvchi va talabalarning asosiy va yuqori amaliy bilimlaridan qoniqish hosil qilishi uchun o‘quv ustaxonasi zarur darajada yorug‘lik va rangtasvirda qo‘llaniladigan jihozlar bilan ta’minlanishi kerak.

## **Ishlatiladigan ashyolar**

- “Leningrad” (Sankt-Petrburg) akvarel bo‘yoqlari;
- har xil yumshoqlikdagi oddiy grafitli qalamlar;
- dumaloq shakldagi 2,3,4,5 o‘lchamdagisi kolonok mo‘y-qalamlar;
- ydumaloq shakldagi olmaxon tukli 12, 16 o‘lchamdagisi mo‘yqalamlar;
- yapaloq shakldagi 5,6 o‘lchamdagisi mo‘yqalamlar;
- gubka;
- Qalinligi 200 g/m<sup>2</sup> bo‘lgan akvarel qog‘oz (torshon);
- suv;
- planshet;
- rangtasvir ishslash uchun dastgoh (molbert).



Akvarel rangtasvirida ranglar bilan ishlash texnikasi muhim ahamiyatga egadir. Bu texnika orqali akvarel ishlash jarayonida katta muvaffaqiyatlarga erishish mumkin. Bu usul bilan ishlash jarayonida uchinchi planda joylashgan bulutlar va manzaralarni aks ettirish mumkin. Bu texnikalar tabiatning tonggi va kechki holatlarini tasvirlashda rassom uchun qulaylik yaratadi.



---

## AKVAREL RANGTASVIRI ISHLARIDAN NAMUNALAR



6-rasm  
«Kuz ne'matlari» akvarel, qog'oz



7-rasm  
«Ayol portreti» akvarel, qog'oz



8-rasm  
«Savatli naturmort»  
akvarel, qog'oz 40x50



9-rasm  
«Kuz naturmorti»  
akvarel, qog'oz 50x70



10-rasm  
«Naturmort»  
akvarel, qog 'oz 50x50



11-rasm  
«Oshxonanaturmorti»  
akovarel, qog'oz 50x60



12-rasm  
«*Tanbur naturmorti*»  
akvarel, qog'oz 50x70



13-rasm  
«Manzara»  
akvarel, qog'oz 50x70



14-rasm  
«Naturmort»  
akvarel, qog'oz 50x50



15-rasm  
«Kuz»  
akvarel, qog'oz 45x55



16-rasm  
«Chol portreti»  
akvarel, qog 'oz 40x50



17-rasm  
«Mevali naturmort»  
akvarel, qog'oz 50x70



18-rasm  
«Atirgul naturmorti»  
akvarel, qog'oz 40x50



19-rasm  
«Soyabonli qiz»  
akvarel, qog'oz 40x50



20-rasm  
«Samovar naturmorti»  
akvarel, qog'oz 50x70



21-rasm  
«Qish»  
Etyud, akvarel, qog'oz 50x70



22-rasm  
O.Olloberganov  
«Qishloq manzarasi»  
akvarel, qog'oz 40x55



23-rasm  
O.Olloberganov  
«Eski uy» akvarel, qog'oz 40x55



24-rasm  
M.Sodiqov  
«Hovuz yonida» akvarel, qog'oz 40x55



25-rasm  
M.Sodiqov  
«Kuz» akvarel, qog'oz 40x55



26-rasm  
«Naturmort»  
akvarel, qog 'oz.



27-rasm  
«Shahar manzarasi»  
akvarel, qog'oz.



28-rasm  
«Mevali naturmort»  
akvarel, qog'oz.



29-rasm  
«Siren»  
akvarel, qog'oz 50x70

# TASVIRIY SAN'ATDA ISHLATILADIGAN ATAMALAR IZOHI

- алла-прима** – akvarel va moybo‘yoq orqali bir bosqichda ishlanadigan uslub
- акварель** – o‘simlik yelimi va birikuvchi moddalar va rangli kukunlardan tayyorlangan suvli bo‘yoq
- анфас** – portreti tasvirlanayotgan odam yuzining old tomondan ko‘rinishi
- аппликация** – har xil qog‘oz va mato yordamida yelimlash orqali ishlanadigan tasvir
- blick** – tasvirlanayotgan buyumlarning eng yorug‘ qismi
- витраж** – asosan rangli shishalar va shunga o‘xshash yorug‘likni o‘tkazuvchi ashyolar bilan ishlanadigan tasviriy san’atning bir turi
- гамма** – badiiy asar ishslash jarayonida bir nechta ranglarning o‘zaro uyg‘unligi.
- гуаш** – suvda aralashadigan, akvareldan farqli ravishda tarkibida oq rangi bo‘lgan rangtasvir uchun mo‘ljallangan bo‘yoq
- гризайль** – asosan qora rangda, bitta tusda ishlanadigan rangtasvir turi
- декоратив рангтасвир** – biror-bir buyum yoki binoning tashqi va ichki tuzilishini hisobga olgan holda dekorativ-amaliy va arxitektura majmularini bezashda qo‘llaniladigan janr
- деталь** – birorta buyum yoki asar qahramonining alohida jihatlarini bo‘rttirib ko‘rsatish

- драпировка**
- naturmort ishlashda, natura qo‘yilmalarida yengil va chiroyli ko‘rinishga ega bo‘lgan mato taxlami
- жанр**
- tasviriy san’atning muayyan bir turi, masalan, naturmort janri, portret janri va h.k.
- живописность**
- asosan dastgohli rangtasvirda asarning ishlanish xususiyati, ranglar yorqinligi va tasvirning rang-barangligi
- живопись**
- tasviriy san’atning bir ko‘rinishi bo‘lib, asosan akvarel, guash, moybo‘yoqlar yordamida ishlanadi
- жухлость**
- moybo‘yoqli rangtasvirda qalin qo‘yilgan ranglar qatlaming bir maromda qurimasi ligi va ranglar tusining o‘zgarishi
- зарисовка**
- tasviriy san’at asarini ishlash maqsadida unga kerakli ashylolarni va naturalarning qoralama chizmatasviri
- изображение**
- tasviriy san’atda qo‘llaniladigan ashylolar yordamida biror buyumning obrazli tasviri
- иллюстрация**
- asosan badiiy grafika va tasviriy san’atning boshqa sohalarida matn orqali beriladigan ko‘rgazmali tasvir
- картина**
- tasviriy san’atning barcha turlarida moybo‘yoq, akvarel, guash orqali mato, qog‘oz va kartonga ishlanadigan tasviriy san’at asari.
- картон**
- muallif tomonidan puxta o‘ylangan kompozitsianing rangtasvir oldidan chiziladigan chizmatasviri
- кисть**
- rangtasvir ishlash uchun tayyorlangan tukli maxsus mo‘yqalam
- колер**
- rangli bo‘yoq

<b>колорит</b>	– rangtasvir asarlarida ranglarning bir-biri bilan o‘zaro uzviy bog‘liqligi va uyg‘unligi
<b>композиция</b>	– badiiy asarning tuzilishi va uning asosiy qismlarini bir-biriga mutanosib holda joylashtirish
<b>контраст</b>	– ranglarning bir-biriga qarama-qarshi joylashtirilishi
<b>копия</b>	– badiiy asarlardan aniq nusxa ko‘chirish
<b>левкас</b>	– devoriy surat va ikonalar ishslash oldidan ranglarni so‘rilib ketmasligi uchun tayyorlanadigan ishqor
<b>локальный цвет</b>	– buyumning o‘zgarmaydigan asosiy rangi
<b>мазок</b>	– rangli qatlamlar ustidagi mo‘yqalamning izi
<b>масленная</b>	– har xil biriktiruvchi moddalar yordamida va o‘simlik moyi qo‘llash orqali ishlanadigan rangtasvir uslubi
<b>живопись</b>	– nozik naqshlar va dekorativ ko‘rinishlarga boy tasviri san’atning kichik o‘lchamdagiga ko‘rinishi
<b>миниатюра</b>	– rangli toshlar, shishalar (smalta) va boshqa ashyolar yordamida ishlanadigan mahobatli rangtasvirning bir yo‘nalishi.
<b>мозаика</b>	– rangli toshlar, shishalar (smalta) va boshqa ashyolar yordamida ishlanadigan mahobatli rangtasvirning bir yo‘nalishi.
<b>мольберт</b>	– har xil qiyalikda, balandlikda mato yoki boshqa rangtasvir ashyolarini mustahkam ushlab turadigan yog‘och yoki temirdan yasalgan dastgoh
<b>монохромия</b>	– bitta rangni ishlatish
<b>муштабель</b>	– rangtasvir ishslashda qo‘lning asosiy tayanch manbai bo‘lgan va uchiga sharik o‘rnatilgan uzun hamda yengil yog‘och cho‘p
<b>пабросок</b>	– rassomning fikri va kuzatishlari asosida tez sur’atda qog‘ozga chizilgan kichik o‘lchamli rangtasvir va haykalning xomaki chizmatasviri

- натура** – tevarak-atrofni o‘rab turgan tirik mavjudot yoki biror buyum
- натурщик, натурщица** – rassomning amaliy mashg‘ulotlar jarayonida odam anatomiyasi va harakatlarini o‘rganish uchun chiziladigan odam
- палитра** – unchalik katta bo‘lmagan oval yoki to‘rtburchak shakldagi ranglar aralash-tirishda foydalilaniladigan taxtacha
- паспарту** – chizmatasvir, akvarel, gravyura ishlarining qog‘oz yoki kartonning o‘rtasini kesib olib bezalishi
- пленэр** – tabiatda, ochiq havoda ishlanadigan rang-tasvir
- пропорция** – badiiy asardatasvirlanayotgan buyumlarning o‘zaro katta-kichiklikdagi munosabati
- профил** – butun bir gavda, buyum yoki boshning yon tomondan ko‘rinishi
- ракурс** – tasvirlanayotgan biror narsani tepadan, pastdan tayanch nuqtalariga e’tibor qilgan holda perspektiva qonunlariga asoslangan tarzda chizilishi
- растворитель** – ranglarni va rangli qatlamlarni, laklarni eritishda ishlatiladigan suyuqlik
- растушевка** – chizmatasvirda qalam orgali ishlangan shtrix chiziqlarning biror bir qog‘oz yordamida ishqalanishi
- рисунок** – qo‘l yordamida biror bir buyum yoki narsa-ning ko‘rinishini qalam, quruq yoki suyuq ranglar yordamida chizilgan chizmatasvir
- свет** – badiiy asarning bir muncha yorug‘ qismi
- светотень** – figura yoki biror buyumning ranglar va tuslardagi yorug‘ va soyalarning har xil ko‘rinishi

<b>сесанс</b>	– rassomning rangtasvir ishlash jarayonidagi tanaffussiz bir kun davomidagi ish vaqtি
<b>сигнатура</b>	– rassomning tugallangan badiiy asardagi mualliflik imzosi
<b>силиэт</b>	– buyumning boshqa bir rang yoki yorug‘lik fonida bir xil tusdagи ko‘rinishi
<b>соус</b>	– qora kukundan tayyorlangan qattiq va yumshоq ko‘rinishdagi chizmatasvir chizishda qo‘llaniladigan ashyo
<b>температура</b>	– rangtasvirda ishlatiladigan emulsiyali bo‘yoq
<b>тень</b>	– natura va buyumlarning yorug‘lik nurlari orqali tushuvchi soya
<b>тон</b>	– 1) badiiy asarda natura va buyumlarning oddiy bo‘lib ko‘ringan asosiy yorug‘-soyalari 2) badiiy asar yoki biron mavzudagi asosiy ranglarni asardagi umumiy ranglar uyg‘unligiga bo‘ysundirilishi
<b>тональность</b>	– rangtasvir va grafikadagi yorug‘-soyalar umumiy uyg‘unligining ko‘rinishi
<b>фон</b>	– tasviriy san‘at asarlari va naqsh ko‘rinishlarining eng tubida ko‘rinib turgan rangli ko‘rinishlarning asosiy qismi
<b>фрагмент</b>	– asar ko‘rinishining bir qismi, element
<b>художник</b>	– ijodkor, qo‘li gul usta, tasviriy san‘at asarlarini yaratadigan mohir rassom
<b>штрих</b>	– chizmatasvir ishlashda qo‘lning bitta harakati bilan bajariladigan chiziqlar
<b>эскиз</b>	– badiiy asarda, yordamchi sifatida chizmatasvir yoki rangtasvirda oldindan tayyorlangan qoramalar
<b>этюд</b>	– badiiy asarlarni ishlash jarayonida oldindan bajarilgan rangli qoramalar

---

**ЭТЮДНИК**

- rangtasvir ashyolari va bo‘yoqlarni saqlash va etyud ishlashda ishlatiladigan fanerdan yasalgan anjom (yashik)

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Каримов И. Баркамол авлод орзуси – Т.: Узбекистон Миллий энциклопедияси Давлат нашриёти, 2000.
2. Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч – Т.: Маънавият, 2008.
3. Худойберганов Р. Рангшунослик асослари – Т.: F.Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2006.
4. Смирнов Г. Б. Рангтасвир. – М.:Просвещение, 1975
5. Неменский Б.М. Мудрость красоты, – М.: Просвещение, 1987.
6. Ревякин П.П. Акварель рангтасвири техникаси М.:Просвещение, 1959
7. Базанова.Е Стихия воды и краски (часть 6), 2008.
8. Школа изобразительного искусство (выпуск 2) – М.: Издательство Академии художеств, 1961.

# MUNDARIJA

Kirish.....	4
Akvarel rangtasviri tarixidan .....	5
Akvarel bo‘yoqlari haqida ma’lumot.....	7
Akvarel rangtasvirida qog‘ozning ahamiyati.....	10
Akvarel mo‘yqalamlari .....	12
Akvarelda ishlash jarayoni.....	13
Akvarelda ishlash texnologiyasi .....	13
Akvarel rangtasvirini bosqichma-bosqich amalga oshirish .....	17
Portret.....	21
Akvarelda qisqa muddatli etyudlarni bajarish .....	23
Tus va tusda ishlash .....	25
Yorug‘ -soya va issiq-sovuq ranglar haqida tushuncha.....	26
Rangtasvirda ranglar qarama-qarshiligini his qilish .....	27
Naturmort kompozitsiyasini yaratish.....	27
O‘quv qo‘yilmalarida fonning ahamiyati.....	28
Alla-prima uslubi .....	29
Qismlarga ajratish (detalizatsiya).....	30
Sayqallash (lessirovka) .....	31
Akvarel rangtasviridan topshiriqlar .....	32
Akvarel rangtasviri ishlaridan namunalar .....	36
Tasviriy san’atda ishlatiladigan atamalar izohi .....	60

25600 =

UDK:76.021(075)

BBK 85.14

Yu91

Yusupov, Ozod

Rangtasvirda akvarel bilan ishlash texnikasi va texnologiyasi: metodik qo'llanma / O.Yusupov; mas'ul muharrir R. Xudoyberganov; O'zbekiston Badiiy Akademiyasi, K.Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn in-ti. –T.: «Chashma Print». – 68 b.

ISBN 978-9943-350-56-4

UDK:76.021(075)

BBK 85.14

28648 → 28652 (5)

OZOD YUSUPOV

RANGTASVIRDA AKVAREL  
BILAN ISHLASH TEXNIKASI VA TEXNOLOGIYASI  
metodik qo'llanma

Muharrir *I.Tursunova*

Texnik muharrir *N.Niyozova*

Musahhih *S.Hamidova*

Sahifalovchi *A.Malyar*

Nashriyot litsenziyasi AI № 109. 15.07.2008 y.  
Bosishga ruxsat etildi 02.05.2011 y. Bichimi 60x84 1/16.  
«Tayms» garniturasi. Shartli bosma tabog'i 4.0.  
Nashr. hisob tabog'i 4,2. Buyurtma № 17.  
Adadi 50 nusxa.

«CHASHMA PRINT» MCHJ nashriyoti.  
Manzil: 100071. Toshkent sh., Komolon ko'chasi, 13.

«REABLE PRINT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Manzil: Toshkent, Furqat ko'chasi, 2-uy.



ISBN:978-9943-350-56-4

A standard linear barcode representing the ISBN 978-9943-350-56-4.

9 789943 350564